



O'ZBEK TILIDAGI SOTSIOLINGVISTIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIY TA'SIRI

Kamolova Mashhura

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Filologiya fakulteti talabasi
E-mail: kamolovamashhura035@gmail.com

Bozorova Kamola

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Filologiya fakulteti talabasi
E-mail: k53869773@gmail.com

Dobilova Madina

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Filologiya fakulteti talabasi
E-mail: dobulovamadina102@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17371345>

Annotatsiya: Ushbu tezis O'zbekistondagi sotsiolingvistik transformatsiyalarni tahlil qiladi. U tilning ijtimoiy xulq-atvor ramzi ekanligini asoslab, davlat tili maqomining legitimatsiyasi kabi pozitiv institutsionalizatsiya va raqamli davrdagi adabiy-normativ eroziya, ekzogen leksik invaziyalar tufayli yuzaga kelgan lingvistik deformatsiyalar o'rtasidagi dialektikani ochib beradi. Til menejmentida strategik yondashuv zarurligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: kommunikativ, til kodi, leksik birliklar, globalizatsiya, ekzogen leksik, grammatik deformatsiya, ijtimoiy o'zgarishlar, chet tillar ta'siri.

Abstract. This abstract analyzes sociolinguistic transformations in Uzbekistan. It substantiates that language is a symbol of social behavior and explores the dialectic between positive institutionalization, such as the legitimization of the state language's status, and linguistic deformations arising from literary-normative erosion and exogenous lexical invasions in the digital age. The necessity of a strategic approach in language management is concluded.

Keywords: communicative, language code, lexical units, globalization, exogenous lexicon, grammatical deformation, social changes, the impact of foreign languages.

Til ijtimoiy xulq-atvorning eng kuchli ramzlaridan biridir. Biz kim ekanligimizni, kim bilan muloqot qilayotganimiz haqida muhim ijtimoiy xabarlarini yuborish uchun tildan foydalanamiz. "Til xalq ruhining tashqi ko'rinishidir" [7].

Jamiyatimizda kundalik hayotimizda tilning rolini hisobga olgan holda sotsiolingvistika yoki ijtimoiy tilshunoslik fani vujudga keldi. "Sotsiolingvistika" terminini fanga birinchi bo'lib 1952-yilda amerikalik sotsiolog olim G. Karri kiritdi [2].

Sotsiolingvistika (lotincha *societies* — jamiyat, *linguistica* — tilshunoslik) — tilshunoslik va sotsiologiya fanlari aloqasi asosida yuzaga kelgan bo'lib, tilning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy vazifalari, til taraqqiyotidagi ekstralingvistik omillarni, til siyosatini, lisoniy muhitni hamda tilning jamiyat hayotidagi o'rni bilan bog'liq muammolarni o'rganuvchi sohaga kiradi.

Uning shakllanishiga I.A. Boduen de Kurte, Y.D. Polivanov, L.P. Yakubinskiy, V.M. Jirmunskiy, B.A. Larin, A.M. Selishev, G.O. Vinokur va boshqa olimlar o'z hissasini qo'shgan. A. Boduen de Kurtene: "Til faqat kishilar jamiyatiga mavjud ekan, u holda uning ruhiy tomonidan tashqari ijtimoiy tomoniga ham e'tibor qaratishimiz kerak. Nafaqat individual psixologiya, balki sotsiologiya ham tilshunoslikning asosi bo'lib xizmat qilishi lozim", — deb yozgan.

Sotsiolingvistika tobora muhim va ommabop o'rganilayotgan sohaga aylanib bormoqda, chunki ko'plab madaniyat egalari o'z kommunikativ bazalarini kengaytirish bilan birga



guruhlararo, shaxslararo munosabatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu soha sotsiologik lingvistika, sotsial tilshunoslik, lingvosotsiologiya nomlari bilan ataladi. Uning rivojlanishi natijasida fikr almashish, talab va taklif berish, o'ylagan g'oyalarini tushuntira olish osonlashdi. Shu sababli sotsiolingvistika har bir millat – elatning tili, xulq-atvori, qadr-qimmatini bilan bevosita bog'liqdir.

Jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar tilga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa sotsiolingvistik fenomenni yuzaga keltiradi. Avvalo, ijobiy o'zgarishlarga to'xtaladigan bo'lsak, 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va "O'zbekiston Respublikasi o'zbek tili – davlat tili" deb Konstitutsiyada belgilanib qo'yilishi ona tilimiz mavqeini oshirish yo'lidagi birinchi qadam bo'ldi. Hujjatlarni o'zbek tiliga o'tkazish, kadrlar tayyorlash, terminlar yaratish, standartlar joriy etildi. Bundan tashqari, O'zbekiston hududida yashovchi barcha millat va elatlarning ona tilida muloqot qilishi kafolatlandi. Yangi tendensiyalar taqdim etildi. So'nggi yillarda davlat va nodavlat tashkilotlari hamda oliy va o'rta ta'lim muassasalari hujjatlarida o'zbek tilidan foydalanish talabi kuchaymoqda, shuningdek, davlat tilini rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlar olib borilmoqda [3].

Tahlil davomida salbiy sotsiolingvistik o'zgarishlarni ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, so'zlashuv tilining me'yoriy, adabiy tilga zid tarzda buzilish holatlari ham kuzatilmoqda. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining ko'p qismi, ayniqsa yoshlar, grammatik qoidalarga zid, qisqartirilgan yoki noto'g'ri shakldagi birliklardan foydalanmoqda. Masalan, "o'zim" so'zini "ozim", "ketdim" so'zini "kettim", "qilyapman" so'zini "qilvomman" shaklida ifodalash ommalashgan. Bu holat adabiy til normalarining zaiflashuviga va rasmiy nutq madaniyatining pasayishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekistondagi yana bir dolzarb sotsiolingvistik o'zgarish — chet tillardan olinayotgan leksik birliklardir. Globalizatsiya va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli ingliz va rus tilidagi terminlar kundalik nutq hamda OAVda keng qo'llanilmoqda. Masalan: "parol (o'ron)", "link (havola)", "perevod (tarjima qilmoq)", "shtraf (jarima)", "chellenj (chorlov)", "dokument (hujjat)", "avans (bo'nak)", "aysberg (muztog') kabi so'zlar nutqimizda faol bo'lib, o'zbek tilida shu ma'noni beruvchi milliy so'zlarni siqib chiqarmoqda va tilning o'ziga xosligiga putur yetkazmoqda [9].

Raqamli kommunikatsiya davrida yuzaga kelayotgan salbiy sotsiolingvistik o'zgarishlar, ayniqsa yoshlar nutqida kuzatilayotgan adabiy me'yorlarning eroziv buzilishi, nafaqat tilning "grammatik deformatsiyasiga", balki uning "kultural kapitali"ning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Sotsiolingvistik jarayonlar tilni faqat aloqa vositasi emas, balki milliy identifikatsiyaning doimiy ravishda qayta shakllanuvchi, dinamik va o'ta nozik maydoni sifatida anglash zarurligini ko'rsatadi. Til siyosati nafaqat preskriptiv chora-tadbirlar bilan, balki tilning kundalik amaliyotlardagi deskriptiv o'zgarishlarini tahlil qilish, ijtimoiy-madaniy kontekstda tilning evolyutsion xususiyatlarini chuqur o'rganish orqali amalga oshirilishi lozim. Tilning barqaror rivojlanishi uning ichki dinamikasini tashqi ta'sirlar bilan muvozanatlash, adabiy me'yorlarni innovatsion kommunikatsiya shakllari bilan uyg'unlashtirish orqali erishiladi. Til, nafaqat o'zining boyligini va tarixiy qatlamlarini saqlab qolsin, balki kelajak avlodlar uchun ham jonli, funksional va milliy o'zlikni aks ettiruvchi vosita bo'lib qolsin.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amirqulov, S. (2025). LINGUISTIC ANNOTATION OF A CORPUS OF OFFICIAL STYLE TEXTS. *Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions*, 3(5), 101-103.
2. Elova, D., Safarova, G. *Sotsiolingvistika*. – Toshkent: 2021, 8-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023, 6-bet.
4. O'zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari.
5. 1-Respublika terminologiya konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Fan, 1986.
6. Qo'ng'urov, R., Begmatov, E., Tojiev, Yo. *Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari*. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
7. Sanaqulov, U., Turobov, A. *Tilshunoslik nazariyasi*. – SamDU nashriyoti, 2019, 164 bet.
8. Choriev, B. A. (2022). Comparative Analysis of the Names of Adjectives in the Russian and Uzbek Languages. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 13, 128-130.
9. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/sotsiologiya>
10. <https://www.afisha.uz/>